

**“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
14-son qarori**

2023-yil 31-avgust
soat 10:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat Ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning __-avgust kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi U. Isayev bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddatini uzaytirish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 2023-yil 21-avgustdagi 01-16/2249-son xati taqdim etildi (xat nusxasi ilova qilinadi).

Mazkur xatda “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ yagona aksiyadorning 2023-yil 19-iyundagi 9-son qaroriga asosan jamiyat boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi U. Isayev bilan 2023-yil 19-iyun kundan 2023-yil 19-avgust kuniga qadar mehnat shartnomasi tuzilganligi ma‘lim qilingan.

Shuningdek, jamiyat tomonidan Korporativ axborot yagona portaliga “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga o‘rnatilgan tartibda tanlov e‘lon qilinganligi, ammo tanlov bo‘yicha nomzodlardan takliflar kelib tushmaganligi tufayli U. Isayev bilan tuzilgan mehnat shartnomasini yana 2 (ikki) oy muddatga uzaytirish hamda Korporativ axborot yagona portalida va jamiyat veb saytlarida qayta tanlov e‘lon qilishga ruxsat so‘ralgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, U. Isayev bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirish taklifi kiritildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyat yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 2023-yil 21-avgustdagi 01-16/2249-son xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga o‘tkazilgan tanlov yakunlari bo‘yicha nomzodlardan takliflar kelib tushmaganligi sababli “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi U. Isayev bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddati qo‘shimcha 2 (ikki) oyga uzaytirilsin.

3. “O‘zkimyosanoat” AJ xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (Aripov) U. Isayev bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga qo‘shimcha kelishuvni o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirsin hamda tasdiqlash uchun kiritsin.

4. Jamiyatning ijroiya organi rahbarligiga tanlov o‘tkazish tartibiga muvofiq jamiyat boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga o‘rnatilgan tartibda qayta tanlov e‘lon qilinsin hamda tanlov natijasi bo‘yicha nomzodlardan kelib tushgan takliflar kuzatuv kengashi tomonidan ko‘rib chiqilib, 2023-yil 31-oktyabr kuniga qadar yagona aksiyadorga kiritilishi ta‘minlansin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori
“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan**

Boshqaruv raisi v.b.



T. Muxamedjanov